

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING AHOЛИ O‘RTASIDA HUQUQIY TARG‘IBOT FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH

Aliboyev Doston Shavkat o‘g‘li

Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi 209-guruh kursanti

Ilmiy rahbar – Toshtemirov Anvar Aliqulovich

IIV Akademiyasi Mamuriy huquq kafedrasida katta o‘qituvchisi

Аннотация: Осуществляемые в нашей стране демократические реформы оказывают влияние на подъем правосознания и культуры населения. Закон Республики Узбекистан "О профилактике правонарушений" определяет меру общей профилактики правонарушений, т.е. деятельность инспектора по профилактике правонарушений по проведению правовой пропаганды среди населения. В данной статье также говорится о научных соображениях и формах правовой защиты при осуществлении правопробандистской деятельности инспектора профилактики среди населения.

Ключевые слова: «Правовое продвижение», правовая культура, правовая культура, международная модель, СМИ, научные основы, инновационное развитие

Annotation: The democratic reforms implemented in our country have an impact on the rise of the legal consciousness and culture of the population. The law of the Republic of Uzbekistan on "Prevention of Offenses" defines the measure of general prevention of the prevention of offenses, i.e. the activities of the prevention inspector to carry out legal propaganda among the population. This article also talks about scientific considerations and forms of legal advocacy in the implementation of legal promotion activities of the prevention inspector among the population.

Key words: "Legal promotion", legal culture, legal culture, international model, mass media, scientific foundations, innovative development

Annotatsiya: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar aholining huquqiy ongi va madaniyati yuksalishiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmoqda. O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi» to‘g‘risidagi qonunida huquqbuzarliklar profilaktikasining umumiy profilaktikasi chora-tadbiri yani profilaktika inspektori aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish faoliyati to‘g‘risida belgilab o‘tilgani boshlang‘ich bir debochasi bo‘ladi. Ushbu maqolada ham aynan profilaktika inspektorining aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot faoliyatini amalga oshirishda ilmiy mulohazalar hamda huquqiy targ‘ibot shakllari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: "Huquqiy targ‘ibot", huquqiy madaniyat, huquqiy madaniyat, xalqaro andoza, ommaviy axborot vositalar, ilmiy asoslar, Innovatsion rivojlanish

«Huquqiy targ‘ibot» umumiy targ‘ibotning bir yo‘nalishi bo‘lib, unda asosan aholining huquq va majburiyatlari, qonuniy manfaatlar bilan bog‘liq masalalarning mazmun va mohiyatini aholiga yetkazish, shu asosda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsad qilib qo‘yiladi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi o‘z navbatida profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi doirasida aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibotni tashkil etishda boshqa soha xizmatlari bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirish kabi vazifalarni belgilab berdi.

Fuqarolarning huquqlarini ximoya qilish, qonuniy manfaatlarini, shuningdek, davlat va jamiyat manfaatlarini ta‘minlash maqsadida profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibotni tashkil etishni amalga oshirish faoliyatini samarali tashkil etishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf qilishga, ushbu faoliyatni amalda qo‘llash va takomillashtirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqib, shu tariqa odamlarining osoyishta hayot kechirishlari va davlatdan rozi bo‘lib yashashlarini ta‘minlash bo‘yicha hamda huquqiy bilim darajasini oshirish bo‘yicha yangi mexanizm va imkoniyatlarga ega bo‘lgan keng ko‘lamli tizim yaratish kerakligini ko‘rsatmoqda.

Huquqiy targ‘ibot va ma‘rifat orqali aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish uchun davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- ✓ milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati shakllanishi hamda yuksalishini ta‘minlash, shuningdek aholining ijtimoiy faolligini oshirish;
- ✓ aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish hamda yuksaltirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish;
- ✓ aholini huquqiy axborot bilan ta‘minlash, bunda axborot berishning samarali usul va vositalari tizimini takomillashtirish;
- ✓ nodavlat notijorat tashkilotlar va davlat organlarining ijtimoiy hamkorligi doirasida aholining huquqiy savodxonligini oshirish.

Shu boisdan targ‘ibot insonning insonligini ta‘minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Targ‘ibotsiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki, odam va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar targ‘ibot tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi. Ilmiy adabiyotlarda huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasining vazifalariga nisbatan uning chora-tadbirlariga ko‘proq e‘tibor qaratilgan. Nazarimizda, maqsad vazifalarning, vazifalar funksiyalarning, funksiyalar esa chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida asos bo‘lib

xizmat qiladi. Natijada chora-tadbirlarni amalga oshirishning huquqiy tartibi ishlab chiqiladi. Mazkur mantiqqa asoslangan holda ishlab chiqilgan har qanday faoliyat o'zining samarali mexanizmiga ega bo'ladi.

Shu boisdan, Yangi O'zbekistonda xalqaro andozalarga mos milliy qonunchilik asoslarini yaratish bilan birga ularning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish ishlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Aholining huquqiy ongini va madaniyatini oshirish uchun ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish, ta'lim muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligida huquqiy tadbirlar tashkil etish, bir so'z bilan aytganda, qonunchilik targ'ibotini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'ta muhim vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi 2019 yil 9 yanvardagi 5618-sonli Farmonini eslab o'tish joiz bo'ladi.

Mazkur Farmonda aholi o'rtasida huquqiy targ'ibotni amalga oshirish yuzasidan bir qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish;

- yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

- aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

- davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan muhosasizlik munosabatini shakllantirish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish;

- ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta‘minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo‘llashni kengaytirish;

- yuridik ta‘limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish kabilar belgilab berilgan.

Ma‘lumki, mamlakatimizda mustaqillik davrida huquqiy targ‘ibot masalasiga hukumat darajasida jiddiy e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Bizning targ‘ibot-tashviqot ishlarimiz ko‘pincha tor doiralarda qolib ketyapti, hayotning keng qatlamlariga kirib bora olmayapti, tajribasiz, g‘o‘r, bilimi, dunyoqarashi cheklangan ayrim yoshlarning ongiga yetib bormayapti. Natijada ular bizga yot bo‘lgan tashqi ta‘sirlarga, buzg‘unchi g‘oyalarga ko‘rko‘rona berilib, hatto o‘z ota-onasiga, xalqi va Vataniga qo‘l ko‘taruvchi yovuz qotillarga aylanmoqda. Biz barcha ma‘rifiy mamlakatlarda bo‘lganidek, g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurashish tarafdorimiz. Afsuski, mutaassib, naslnasabini unutgan kimsalar bilan g‘oyaviy munozaraga kirishishning o‘zi bir azob. Chunki ularning ongi shu darajada zaharlanganki, ular miyasiga o‘rnashib qolgan aqidadan o‘zga biron-bir haqiqatni tasavvuriga ham sig‘dira olmaydi. Agar ular bilan bahsga kirishmoqchi bo‘lsangiz, ikkita savolga javob beradi-yu, keyin qotib turaveradi – uchinchi savolga javob berishga na bilim bor, na idrok, na hayotiy tajriba», deb bildirgan fikrlari oddiy haqiqat. Bu fikrlar targ‘ibot va tashviqot masalalarining nechog‘lik dolzarb ahamiyat kasb etishini anglatadi. Mazkur dolzarblikni qonun hujjatlari bilan ayrim subyektlar zimmasiga aholi o‘rtasida keng doirada huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish vazifasi yuklatilganligida ham ko‘rishimiz mumkin. Ba‘zi bir manbalarda keltirilishicha, huquqiy targ‘ibot o‘z mazmunmohiyatiga ko‘ra shunday ta‘sir choralari tizimidirki, u orqali jamiyatda yuksak huquqiy madaniyat va huquqiy ong darajasiga erishiladi. Undan ko‘zlangan maqsad esa fuqarolarga zarur huquqiy bilimlarni berish va ularda qonunlarga hurmat ruhini shakllantirishdan iboratdir. Shu bilan birga huquqiy targ‘ibot o‘z mohiyatiga ko‘ra turli vazifalarni amalga oshirib, eng avvalo, u jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarda zarur vosita sifatida maydonga chiqadi.

«Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi». Prezidentimiz tomonidan bunday fikrlarning o‘rtaga tashlanishi bejiz emas. Bugungi hayot, taraqqiyot yangi g‘oyalarni,

yangi fikrlarni, har bir sohada ilm-fan bilan hamkorlikni talab qilmoqda. Innovatsion rivojlanish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bu jarayon bevosita ichki ishlar tizimi faoliyat bilan ham bog'liq. Zero, mamlakatimizda 2022 yil «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili» deb e'lon qilinishi ham ichki ishlar tizimida jiddiy islohotlarni amalga oshirishni talab etadi.

Xo'sh, bu borada mamlakatimizda fuqarolarning ishonchi va mehrini qozonadigan, xalqqa xizmat qiladigan ichki ishlar tizimini yaratish uchun islohotlarning kelgusi bosqichida qanday aniq vazifalarni bajarish muhim va zarur? Buning uchun bir necha yo'nalishlarda ish olib borish talab etiladi. Tizimda xodimlarning ish faoliyatini eski «qolip»lar asosida tashkil etishga butunlay barham berib, ularning xizmat burchini Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliy burchimiz konseptual g'oyasi asosida bajarishini amalda to'liq ta'minlash zarur. Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz (normativ hujjatlar bazasi)
2. www.google.com (butun jahon qidiruv tizimi)
3. Xo'jaqulov S. B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish: Monografiya
4. https://constitution.uz/uz/pages/prezident_maruzasi_25yil
5. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)
6. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.
7. «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi 2019 yil 9 yanvar PF-5618